XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 27 - fevral VI-49-19-4-57-K/23 Dehqonobod tuman hokimligi

Dehqonobod tumanidagi “Chilgaz” va “Sarchashma” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahalla tashkil etish to‘g‘risida

“Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-son qarori bilan tasdiqlangan “Shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi, Dehqonobod tuman hokimining va tumanidagi “Chilgaz” va “Sarchashma” mahalla fuqarolar yig‘inining hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallani tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Dehqonobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dehqonobod tuman hokimining va tumanidagi “Chilgaz” va “Sarchashma” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini o‘zgartirish va yangi mahallani tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

2. Dehqonobod tumanidagi “Chilgaz” va “Sarchashma” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati hamda uning nomi 1-ilovaga, yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini chegarasi va tavsifi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Dehqonobod tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari soni 55 ta deb yuritilsin.

4. Dehqonobod tuman hokimligi hamda Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (K.Xushvaqtov)ga:

- yangi tashkil etilayotgan mahallaning to‘liq shakllanishi va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

- hududiga o‘zgartirish kiritilgan mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tushuntirish ishlari olib borilsin.

5. Dehqonobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Usmonov), Dehqonobod tuman moliya bo‘limi mudiri (F.Nurmatov) yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘iniga shtat birliklari ajratish va mehnatga haq to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar uchun zarur mablag‘larni mahalliy budjetdan belgilangan tartibda ajratish choralarini ko‘rsin.

6. “Dehqonobod ovozi” tuman ro‘znomasi (E.Maxsumov), Dehqonobod tuman hokimligining axborot xizmati matbuot kotibi (O.Qo‘ldoshov) mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan so‘ng kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashi doimiy komissiyasi va Dehqonobod tuman Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i K.Xushvaqtov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **Aliqulov.Z.X**

Xalq deputatlari Dehqonobod tuman
Kengashining
2023 yil 27 fevraldagi
VI-49-19-4-57-K/23-son qaroriga
1-ilova

Dehqonobod tumanidagi “Chilgaz” va “Sarchashma” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiy chegarasini qayta ko‘rib chiqish hisobiga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘ini ro‘yxati va uning nomi

T/r	**Bo‘linadigan mahallaning nomi**	**Bo‘lish hisobiga yangi tashkil etilgan mahallalar nomi**	**Izoh**
1	Chilgaz MFY	Chilgaz MFY	Aholi soni ko‘payganligi, qishloqlarning tarqoq joylashganligi va tog‘li hudud bo‘lganligi
		Bunyodkor MFY	
2	Sarchashma MFY	Sarchashma MFY	

Xalq deputatlari Dehqonobod tuman
Kengashining
2023 yil 27 fevraldagi
VI-49-19-4-57-K/23-son qaroriga
2-ilova

Yangi tashkil etilayotgan mahallalar chegaralari va tavsifi

Bunyodkor MFY

Markazi: “Katta qishloq” qishlog‘i

Aholi: 759 ta

Oila: 166 ta

Chegarasi: Chilgaz qishlog‘i va Sarchashma qishlog‘i.